

HUQUQ TIZIMIDA MUALLIFLIK HUQUQINING PAYDO BO'LISH TARIXI

Sabina Toxirova Zoxidjon qizi

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi

1-bosqich tayanch doktoranti

E-mail: sabinatoxirova99@gmail.com

Tel: 94 286 72 03

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10836532>

Annotatsiya: Ushbu tezisda fuqarolik huquqi normalari orasida muhim o'rin tutgan mualliflik huquqining huquq tizimida paydo bo'lish tarixi va rivojlanish bosqichlari keltirilgan. Shuningdek, ushbu sohaga oid xalqaro shartnoma va konvensiyalarning qabul qilinishi va uning sabablari keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: mualliflik huquqi, muallif, nusxa olish, xalqaro shartnoma va konvensiyalar, intellektual mulk.

Bugungi kunda huquq tizimida mualliflik huquqi alohida o'rin tutadi. Qadimdan mualliflik huquqiga katta e'tibor berib kelinadi va himoya qilinadi. Ta'kidlamog joizki, mualliflik huquqi borasida bahs ketganda, albatta uning qachon paydo bo'lganligi masalasi ko'tariladi. Mualliflik huquqi tarixiga doir bilimlar huquqshunoslar tomonidan atroflicha o'rganilgan.

Mualliflik huquqining paydo bo'lishi haqida fikr yuritilganda, olimlar ikki toifaga bo'linishadi. Bir guruh olimlar mualliflik huquqi dastavval Yevropa mamlakatlarida vujudga kelgan degan fikrni ilgari surishsa, boshqa guruh olimlari esa Sharq mamlakatlarining mualliflik huquqi paydo bo'lishida alohida o'rin tutadi deb bahs olib borishadi.

Insoniyat tarixida erishilgan barcha moddiy ne'matlar, yaratilgan kashfiyot va ixtirolar inson tafakkurining mahsulidir. Tarixiy haqiqat ularni yaratilgan davrini, muallifini shu paytgacha mualliflik huquqsiz ham avlodlarga yetkazgan. U davrlarda mualliflik huquqi mavjud bo'lmaganiga qaramay, Sharqda har bir muayyan hududning (qishloq, shahar, ovul, vodi, voha va h.z) o'z me'mori, tikuvchisi, zargari, tosh yo'nuvchisi, duradgori, naqqoshi, hattoti va boshqa sohalarning ustalari yaratgan ijod yoki tafakkur mahsuli faqat ularning o'zigagina tegishli bo'lib, dovrug'i shu hududda, undan tashqarida mashhur bo'lgan. Har bir soha vakilining o'z dastxati, yaratgan asariga qoldirgan qandaydir belgisini (naqqoshlar naqshga ismlarining bosh xarflarini o'yib qo'yishgan, hattotlar ko'chirilgan asarga ism-sharifini yozgan, kosiblar, duradgorlar ham shunga o'xshash belgi, ramzlar) qoldirganlar.

Nemis mutaxassisi I.Gutenbergning fikricha, XV asrda harf bosish ixtiro qilinishi natijasida ommaviy ravishda kitoblar chiqarishi mualliflik huquqining kelib chiqishiga asos bo'ldi¹. Bu davrda dastlab asar yaratgan muallifning huquqi emas, balki kitob nashr qilgan noshirning huquqi himoya qilingan.

Mualliflik huquqi bo'yicha mutaxassis, yuridik fanlari doktori B.Toshev o'zining "Xalqaro tashkilotlarning mualliflik huquqiga oid aktlarining huquqiy maqomi" deb nomlangan monografiyasida shunday yozadi: "Bizningcha, kitobning qo'lyozma shaklida paydo bo'lishi mualliflik huquqining vujudga kelishidagi dastlabki huquqiy belgi hisoblanadi.

Sharq mamlakatlarida kitobning sahifasiga miniatyura, rangli bezak va naqsh chizilgan, kitob egasining nomi, gohida ustaning nomi, uning tilak (bag'ishlov)lari, asarning va muallifning nomi

¹ I.I. Nasriyev, B.N. Toshev "Mualliflar shaxsiy mulklari tizimi"

bitilgan. Bezakli qo'lyozma bir qator ustalar-hattot, naqqosh, muzahhib (zarhal beruvchi), musavvir va sahhofning hamkorlikdagi ijodiy mahsuli hisoblangan va uning yaratuvchilari esa muallif degan maqomga ega bo'lgan"²

Yevropada mualliflik huquqining paydo bo'lishini avstriyalik olim va mualliflik huquqi bo'yicha mutaxassis D.Valter kitob chop etish bilan bog'lab ko'rsatadi: "Mualliflik huquqining shakllanishi XVI asrning boshlarida tipografiya ishining ixtiro qilinishi bilan bog'liq. Matnlarning nusxa qilib tarqatilishida qo'lyozma muallifi o'zining asariga nisbatan iqtisodiy nazoratni yo'qota boshladi. Bosma matn va tasvirlarning ommaviy tovar sifatida olish-sotish jarayoni natijasida ularni himoya qilish zarurati paydo bo'ldi. Natijada, noshirlar davlat amaldorlaridan o'zlarining noshirlik mahsulotlarini qonunsiz qayta nashr qilish jarayonlarini oldini olishni talab qila boshladilar".

Mualliflik huquqi tushunchasi huquq ob'ekti sifatida XVIII asr boshida paydo bo'lib, uning asosiy maqsadi – insonning intellektual faoliyatini himoya qilish va taqdirlash hisoblanadi. Qirolcha Anna davrida Angliyada 1709-yilda dunyodagi birinchi mualliflik huquqi to'g'risidagi qonun Ann statuti qabul qilindi. Ushbu qonun birinchi marta asar muallifining mualliflik huquqining egasi ekanligi tushunchasini kiritdi va himoya qilishning qat'iy shartlarini belgilab berdi. Ushbu Qonunga muvofiq, mualliflik huquqi bilan himoyalangan asarlar maxsus mualliflik huquqi kutubxonalariga saqlanishi va Stationers' Hall da ro'yxatdan o'tkazilishi kerak edi. Nashr qilinmagan asarlar uchun avtomatik mualliflik huquqi himoyasi yo'q edi³.

Anna nizomiga asoslangan qonunchilik asta-sekin boshqa mamlakatlarda paydo bo'la boshladi, masalan, Qo'shma Shtatlardagi 1790-yildagi Mualliflik huquqi to'g'risidagi qonun. 1886-yilda Bern konvensiyasi milliy davlatlar o'rtasida mualliflik huquqini o'zaro tan olishni ta'minlash va mualliflik huquqini himoya qilish bo'yicha xalqaro standartlarni ishlab chiqishga yordam berish uchun kiritilgan.

Bern konvensiyasi asarlarni har bir alohida davlatda alohida ro'yxatdan o'tkazish zaruratini yo'q qildi va dunyoning deyarli barcha davlatlari tomonidan qabul qilingan. 1988-yilda Qo'shma Shtatlar shartnomani qabul qilganidan keyin konvensiya deyarli barcha yirik mamlakatlarni qamrab oldi. Bern konvensiyasi bugungi kungacha o'z kuchini saqlab kelmoqda va xalqaro mualliflik huquqi uchun asos bo'lib kelmoqda.

Bern konvensiyasining qabul qilinishi bilan amalga oshirilgan eng katta o'zgarishlardan biri nashr etilmagan asarlarga mualliflik huquqini himoya qilishni kengaytirish va ro'yxatga olish talabini olib tashlash edi. Bern konvensiyasi mamlakatlarida bu shuni anglatadiki, jismoniy shaxs (yoki ular ishlayotgan tashkilot) o'zi ishlab chiqargan har qanday asar qandaydir tarzda yozib olingandan so'ng mualliflik huquqiga egalik qiladi, xoh uni yozib olish, chizish, suratga olish va hokazo holatlarda ham.

Jumladan, yurtimizda ham mualliflik huquqi o'z rivojlanish bosqichlariga ega. Qadimdan shoirlar, rassomlar, naqqosh vas shu kabilar muallif hisoblanib, ularning sha'ni, qadr-qimmatini va ular yaratgan asarlar qadriyat sifatida himoya qilib kelingan. Bu vaqtda mualliflik huquqi shariat normalari asosida himoya qilinib, ajdodlarimiz yaratgan fan, adabiyot va san'at asarlari bizgacha yetib keldi. Bundan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda ham mualliflik huquqi uzoq o'tmishdan buyon himoya qilib kelinadi.

² B.N.Toshev "Xalqaro tashkilotlarning mualliflik huquqiga oid aktlarining huquqiy maqomi" (2007)

³ https://intellectualpropertyrightsoffice.org/copyright_history/

Mustaqillikdan so'ng, yurtimizda intellektual mulk tizimini rivojlantirish va uni himoya qilish masalalariga jiddiy e'tibor qaratildi. Ushbu sohaga doir bir qator xalqaro shartnoma va konvensiyalarga qo'shildi. 2005-yil 19-aprelda "Adabiy va badiiy asarlarni himoya qilish to'g'risida"gi Bern konvensiyasiga a'zo mamlakatlar qatoridan joy oldi⁴. Shu munosabat bilan yurtimizda mualliflik huquqi himoyasida qonun ustuvorligini ta'minlash zarurati tug'ildi. Natijada, boshqa mamlakatlar singari O'zbekiston ham 2006-yil 20-iyulda "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida" gi Qonunini qabul qildi. Shu davrdan boshlab mamlakatimizda ushbu qonun mualliflar va huquq egalarning huquqlarini to'liq ro'yobga chiqarilish uchun qonuniy asos vazifasini bajarib kelmoqda.

Shuni ta'kidlash joizki, bugungi kunda huquq tizimida mualliflik huquqi keng taraqqiy etib, unga doir bir qancha xalqaro shartnoma va konvensiyalar yaratildi. Hozirda har qanday davlat milliy qonunchilik tizimini yaratayotganda mualliflik huquqiga oid ushbu xalqaro shartnomalarda keltirilgan huquqiy-siyosiy normalarni qonunlari normalari bilan uyg'unlashtirgan holda mualliflik huquqiga doir o'zlarining alohida qonunlarini qabul qilishmoqda.

References:

1. I.I. Nasriyev, B.N. Toshev "Mualliflar shaxsiy mulklari tizimi". Monografiya.
2. B.N.Toshev "Xalqaro tashkilotlarning mualliflik huquqiga oid aktlarining huquqiy maqomi" Monografiya. 2007
3. Yakubova I. Mualliflik huquqi. Darslik. – Toshkent: TDYU, 2021
4. Oqyo'lov O. – Intellektual mulk huquqi. – I.Mo'minov nomidagi Falsafa va huquq instituti. – 2005.
5. <https://intellectualpropertyrightsoffice.org/copyright/history/>
6. https://en.wikipedia.org/wiki/History_of_copyright#:~:text=The%20British%20Statute%20of%20Anne,to%20the%20copying%20of%20books.
7. <https://copyrightservice.co.uk/copyright/history-copyright>

⁴ I.Yakubova "Mualliflik huquqi ",2021